



Guzalxon ISAKOVA,

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, filologiya fanlari doktori, professor v.b

E-mail: isakova-guzal@mail.ru

ORCID: 0009-0008-3168-9580

O‘zDSMI dotsenti, f.f.d H.Ismoilov taqrizi asosida

QANOTLI IBORALAR VA AFORIZMLARNING QIYOSIY TADQIQI

Аннотация

Jahon tilshunosligida qanotli iboralarni alohida o‘rganish masalasi kuchayib bormoqda, lekin ularni boshqa birliklaridan chegaralash borasidagi muammolar to‘liq yechimini topmagan. Qanotli iboralar o‘zida turli til birliklari belgilarini jamlaganligi bois uning tildagi maqomini aniqlash murakkab bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda qanotli iboralar bilan boshqa til birliklari o‘rtasidagi farqlar bo‘yicha turlicha qarashlar mavjud. Mazkur maqolada qanotli iboralar bilan aforizmlar o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlari borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, til birliklari, qanotli ibora, aforizm, ma‘nodorlik, muallifga egalik, ko‘chma ma‘no, assotsiatsiya, tahlil.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КРЫЛАТЫХ ВЫРАЖЕНИЙ И АФОРИЗМОВ

Аннотация

В мировой лингвистике всё больше возрастает интерес к вопросу изучения крылатых выражений в отдельности, однако проблемы их разграничения от других единиц до конца не решены. Поскольку крылатые выражения сочетают в себе признаки разных языковых единиц, где определение их статуса в языке затруднено. В настоящее время существуют различные точки зрения на различия между крылатыми выражениями и другими языковыми единицами. В данной статье рассматриваются сходство и различие между крылатыми выражениями и афоризмами.

Ключевые слова: лингвистика, языковые единицы, крылатое выражение, афоризм, осмысленность, авторство, переносное значение, ассоциация, анализ.

COMPARATIVE STUDY OF WINGED EXPRESSIONS AND APHORISMS

Annotation

In world linguistics, the issue of studying winged expressions separately is gaining momentum, but the problems of distinguishing them from other units have not been fully resolved. Since winged expressions combine the features of various language units, it has been difficult to determine their status in the language. Currently, there are different views on the differences between winged expressions and other language units. This article discusses the similarities and differences between winged expressions and aphorisms.

Key words: linguistics, language units, winged expression, aphorism, meaningfulness, authorship, figurative meaning, association, analysis.

Kirish. Qanotli iboralardan sitata sifatida foydalanish uzogroq davrga borib taqalsa-da, XX asrga kelib ularning ilmiy tadqiqi anchagina sezilarli darajada tus oldi. Ular ko‘plab shaxslar til boyligining faol fondiga kirgan bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy va jamoaviy xulqning eng muhim omili hisoblanadi. Qanotli iboralar obrazli va ifodali nutqning vositalaridan biri sifatida nutqni jonlantiradi, uni yanada hissiy, rang-barang, obrazli, ta’sirchan va jozibador qiladi.

O‘tgan asrning boshlarida frazeologiyani o‘rganish keng tus oldi. Tilshunoslar barcha obrazli ifodalar va iboralar ustida qizg‘in ish olib bordilar. Lekin qanotli iboralar barcha qo‘llanmalarda ajratilmasdan qorishib qo‘llanaverdi. Ko‘plab frazeologlar qanotli iboralarga frazeologizmlar kabi emas, balki estetik yoki badiiy hodisa sifatida qarashgan. Faqatgina A.M.Babkin, L.I.Royzenzon, Y.A.Gvozdev, V.M.Mokiyenko[1] hamda boshqa lingvomamlakatshunoslik va etimologik lug‘atlar tuzuvchilari o‘z ishlarida qanotli iboralarni noma‘lum frazeologizmlar manbasi sifatida ko‘rib chiqishadi. Shu asnoda qanotli birliklarni o‘rganish rivojlana bordi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tilshunoslikda qanotli iboralar tadqiqiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Ba’zi olimlar qanotli iboralarni frazeologizmlar qatoriga kiritishmaydi, lekin V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy,

A.V.Kunin, A.YE.Yefimov[2] singari tilshunoslar ularning frazeologizmlarga mansubligini, qanotli iboralarning milliy frazeologiyaning eng boy va ma‘nodor qatlamlaridan biri ekanligini o‘sha vaqtlardayoq e’tirof etishgan. Qanotli iboralar o‘zida turli til birliklari belgilarini jamlaganligi uchun uning tildagi maqomini aniqlash murakkab bo‘lib kelgan.

Ushbu savol S.I.Ojegovning “O strukture frazeologii” nomli maqolasida o‘z yechimini topadi. Qanotli so‘zlar semantik va sintaktik tuzilishiga ko‘ra boshqa frazeologik birliklardan ma‘lum jihatlari bilan farq qilishini e’tiborga olib I.S.Ojegov frazeologiyani tor ma’noda “turg‘un frazeologiyaga oid birikmalar” va “tilning turg‘un birikmalari”ga kiradigan, shuning bilan birga keng ma’noda “ijodiy asar”ga mansub maqol, matal, qanotli so‘z, aforizm va iboralarni farqlash kerakligini aytadi. Shuningdek, u keng ma‘nodagi frazeologiyaga oid ba’zi birliklarning tor ma‘nodagi frazeologiyaga o‘tishi mumkinligini ham ta’kidlaydi. Uning bildirishicha, “bunday o‘tish qachonki qanotli so‘zdan foydalanish jarayonida u muallif kontekstidan va ma‘lum bir davrdan ajralib, tilning tizimli hodisasiga aylangan holatlarda yuz beradi”[3]. Aslida, S.I.Ojegov tomonidan berilgan frazeologiyaning tor va keng ma‘nodagi tushunchasi bu tildagi frazeologik birliklarning biror bir til darajasiga, leksika yoki sintaksisga mos kelishidir. Demak, bu

o'rinda aslida gap frazeologiyaning sintaktik xususiyatlari haqida borayotganligini anglash mumkin.

Tahlil va natijalar. Frazeologiya tadqiqining tobora oydinlasha borishi natijasida qanotli iboralarni alohida o'rganish masalasi kuchaya bordi, lekin ularni boshqa birliklardan chegaralash borasida muammolar to'liq yechimini topmagan.

Shunga ko'ra quyida qanotli iboralarning aforizmlardan farqi borasida fikr yuritiladi. Manbalardan bilimizki, "Qanotli iboralar bilan aforizmlar o'rtasidagi farqlar bo'yicha turlicha qarashlar mavjud"[4]. Uzoq yillar davomida tilshunoslikda qanotli iboralar "til aforizmlari"dan ajratilmadi. Qanotli iboralarning ilk frazeologik tahlili V.P.Felitsina va Y.YE.Proxorov tomonidan o'tkazilgan. Mualliflarning 189 ta qanotli birlikni qamrab olgan lingvomadaniyatshunoslik lug'atida ularni tahlilga tortilgan[5].

Ushbu lug'atning V.G.Kostomarov va YE.M.Vereshaginlar tomonidan yozilgan so'z boshida mualliflar qanotli iboralarni tilning qurilmabop birliklariga kiritishadi. Ular aforizmlar bilan qanotli iboralar o'rtasidagi farqi borasida, "aforizmlar odatda fraza shaklidagi tugal ma'no anglatuvchi ibratli fikrdir", deb ta'kidlashadi va til aforizmlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlashtirishadi: "1) til aforizmlari barchaga tanish va nutqda hamma qo'llaydi (ya'ni ular ommaviy qabul qilinadi). 2) aforizmlar – bu holatlarning belgilari yoki narsalar o'rtasidagi munosabat va ular gaplarga semantik jihatdan ekvivalentdir"[6].

M.A.Alekseyenko, aforizmlarni tahlil qilar ekan, aforizm terminiga, avvalo, lingvistik ma'no kiritadi va "aforizmlar til birligi bo'lib, kontekst bilan aloqasini yo'qotmaydi, shuning asnosida maqol va matallardan farqli ravishda ularning muallifga egaligi saqlanadi"[7], deb fikr bildirib, maqol va aforizmlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarini tahlil qiladi.

M.M.Kopilenko va Z.D.Popovalarning "Ocherki po obshey frazeologii" nomli ishida ham mualliflar tomonidan maqol va aforizm tushunchalari munosabatlari masalalariga e'tibor qaratilgan. Lekin tadqiqotchilar M.A.Alekseyenkodan farqli ravishda, maqol va aforizmlarni kelib chiqishi jihatidan farqlanadigan qisqa ibratli fikr, keng ma'noli sifatida qabul qilishadi, ularni qanotli iboralar va matallar bilan qarama-qarshi qo'yishadi va "aforizmlar va maqollar – frazeologiya emas, ularning sermahsul manbalaridan biri; qanotli iboralar va matallar – til sistemasiga kiruvchi turli darajadagi frazeologiya", degan fikrni bildirishadi[8].

1990-yili N.T.Fedorenko va L.I.Sokolskayalarning "Aforistika" nomli monografiyasi nashrdan chiqadi. Unda mualliflar "aforizmlar tushunchasi – bu shubhasiz bir xil ibratli fikrlar", degan xulosani berishadi va quyidagi aforizmlarga xos jihatlarini aniqlashadi: 1) haqiqatga intiluvchan, chuqur ma'noli; 2) umumlashganlik; 3) qisqalik; 4) fikrning tugallanganligi; 5) fikrning sayqallanganligi; 6) badiiylilik[9].

Bundan tashqari, ushbu monografiyaning mualliflari qanotli iboralar bilan aforizmlarning chegaradosh mezonlarini ko'rsatishga harakat qilishgan. Ular quyidagilar: 1) qanotli iboralar aforizmlardan farqli ravishda tugal xulosaga ega emas; 2) qanotli iboralar aforizmlardan farqli ravishda o'zining mustaqil ma'nosiga ega emas, u doimo o'zi hosil bo'lgan holat bilan assotsiatsiyalanadi, aks holda uni tushunib bo'lmaydi; 3) qanotli iboralar mulohazaga chorlamaydi va o'zining kelib chiqishi bilan bog'liqligi tufayligina ongga ta'sir qiladi; 4) aforizmlar bir ma'noli, qanotli iboralar bo'lsa ko'p ma'noli; 5) qanotli iboralar stilistik jihatdan moslashuvchan va gapga oson kiritiladi; 6) qanotli iboralar ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llaniladi, aforizmlar bo'lsa doimo o'z ma'nosida qo'llaniladi; 7) qanotli iboralar aforizmlar kabi alohida badiiy janr emas[10].

Anglanadiki, qanotli iboralar turg'un ko'chma ma'noga, ommaviy qabul qilinish xususiyatiga ega ekanligi bois ko'plab olimlar qanotli iboralarni til birligiga, aforizmlarni bo'lsa badiiy ko'rinishga kiritishadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida aforizmlar (yun. aphorismos – hikmatli so'z) ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; hikmatli so'zlar, deb ta'riflangan[11]. Fransuz tili lug'atlarida ham aforizmlar hikmatli so'z va iboralar deb, talqin etilgan[12].

Aforizmlar uchun umumlashganlik, lo'ndalik, fikrning tugallanganligi, sayqallanganligi, badiiylilik kabi jihatlar xosdir. Aforizmlar ko'pincha, odob-axloqqa oid izchil fikrlar hisoblanadi. Aforizmlarni tushunish borasida qiyinchilikka uchramaymiz chunki ular doimo o'z asl ma'nosida qo'llaniladi. Bu jihatdan ular maqol va matallarga yaqin turadi:

La vie est courte, l'art est long. (Hippocrate)

– Hayot qisqa, san'at abadiydir.

Demak, qanotli iboralarni aforizmlar bilan taqqoslasak quyidagilar ko'zga tashlanadi: aforizmlar doimo o'z asl ma'nosida qo'llaniladi:

L'éducation de l'homme commence à sa naissance. (Jean-Jacques Rousseau)

– Inson tarbiyasi tug'ilishidan boshlanadi.

Qanotli iboralar bo'lsa ko'chma ma'noda ham qo'llaniladi.

Masalan, Vendre la peau de l'ours, ya'ni Ayiq terisini sotmoq qanotli iborasi La Fontenning "Ayiq va ikki hamroh" (fr. L'Ours et les deux Compagnons) masalidan olingan (syujeti Ezopning masalidan olingan). Masalda hali o'lmagan ayiqning terisini shilib sotish xayoli haqida hikoya qilinadi. Shunga ko'ra Ayiq terisini sotmoq qanotli iborasi ko'chma ma'noda biror muvaffaqiyatga hali erishmasdan turib maqtanish, ya'ni "xom xayol" ma'nosini beradi.

Aforizmlar barchaga doimo tushunarli, biz tadqiq qilayotgan qanotli iboralar bo'lsa paydo bo'lgan vaziyat bilan belgilanadi, aks holda uni tushunish qiyin. Masalan, L'âge de Balzac, ya'ni Balzak yoshi qanotli iborasi. Ushbu ibora fransuz yozuvchisi Onore de Balzakning "O'ttiz yoshli ayol" (La Femme de trente ans, 1831) romanining yaratilishi bilan bog'liq. Romanning qahramoni Jyuli d'Yeglemon o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalaydigan, mustaqilligi bilan boshqalardan ajralib turadigan ayol. Qahramonning xarakteridan kelib chiqib Balzak yoshi qanotli iborasi 30-40 yoshlardagi, jozibador, erkaklarda qiziqish uyg'otadigan ayollarga nisbatan qo'llaniladi.

Ko'rinadiki, ushbu asarni o'qigan, qahramonning xarakterini bilgan shaxs uni darhol anglaydi, aks holda ibora tushunarsiz bo'lib qolaveradi.

Yoki, Pot-au-lait de Perrette, ya'ni Perretning sutli ko'zasi qanotli iborasi La Fontenning "Sut sotuvchi va sutli ko'za" (fr. La Laitière et le Pot-au-lait, 1678) masalidan olingan. Unda berilishicha, bechora Perrett boshini ustiga qo'yib olgan ko'zasidagi sutni sotib, bir nechta tovuq jo'jalari, so'ngra cho'chqa va sigir sotib olishni orzu qilib ketayotib boshidagi ko'zani tushurib yuboradi va u bilan birga barcha orzulari ham parchalanib ketadi. Shundan kelib chiqib Perretning sutli ko'zasi "puchga chiqqan orzular" ma'nosini anglatadi. Qanotli ibora ushbu masalning syujeti, ya'ni Perrett bilan kechayotgan voqea orqali belgilanadi, aks holda uni tushunish qiyin.

Xulosa. Ko'rinadiki, qanotli iboralar aniq manba yoki aniq bir shaxsning mulohazasidan olingan va keng tarqalgan obrazli ifodalardir. Ular alohida shakllangan, komponent tarkibi, grammatik tuzilishi va semantik yaxlitligi jihatidan ajralib turuvchi alohida til birligidir. Aforizmlar va qanotli iboralarni ko'p jihatlar birlashtirsa-da, ularni bir-birlaridan keskin farqlovchi jihatlar ham talaygina. Ushbu birliklarning birlashtiruvchi jihatlarini ma'nodorlik va muallifga egalik hisoblanadi. Qanotli iboralarning semantik xususiyatlari,

ko'chma ma'noda qo'llanilishi hamda doimo paydo bo'lgan ekanligini ko'rsatadi. vaziyat bilan assotsiatsiyalanishi aforizmlardan o'zgaracha

ADABIYOTLAR

1. Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. – 264 с.; Ройзензон Л.И. К теории крылатых слов // Актуальные проблемы лексикологии: Тез. докл. лингв. конф. 5-8 мая 1967 г. – Новосибирск, 1967. – С. 130-132; Гвоздарев Ю.А. Пусть связь речений далека. Очерки по русской фразеологии. – Ростов-на-Дону: Рост. книж. изд-во, 1982. – 208 с.; Мокиенко В.М. Славянская фразеология. 2-е изд., испр., доп. – Москва: Высш. шк., 1989. – 288 с.
2. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // В.В. Виноградов. Избр. тр. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С. 140-161; Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. 2-е изд. – Москва: Просвещение, 1972. – 328 с.; Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – Москва: Высшая школа, 1970. – 344 с.; Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. 2-е изд., доп. и перераб. – Москва: Изд-во МГУ, 1961. – 520 с.
3. Ожегов С.И. О структуре фразеологии (в связи с проектом фразеологического словаря русского языка) // Лексикология. Лексикография. Культура речи. – Москва: Высшая школа, 1974. – С. 182-219.
4. Исакова Г.Н. Крылатые слова и смежные языковые единицы // Экономика и социум. Электронное научно-практическое периодическое издание. – Саратов: ИУСЭР, 2025. №3 (130)
5. Фелицына В.П., Прохоров Ю.Е. Русские пословицы, поговорки и крылатые выражения. Лингвострановедческий словарь. – Москва: Русский язык, 1980. – С. 145-220.
6. Фелицына В.П., Прохоров Ю.Е. Русские пословицы, поговорки и крылатые выражения. Лингвострановедческий словарь. – Москва: Русский язык, 1980. – С. 5.
7. Алексеенко М.А. Фразеология и способы её перевода. – Львов: Львовский ГУ, 1989. – 204 с.
8. Копыленко М.М., Попова З.Д. Очерки по общей фразеологии. – Воронеж: Воронеж ГУ, 1989. – С. 70.
9. Федоренко Н.Т., Сокольская Л.И. Афористика. – Москва: Наука, 1990. – С. 181-183.
10. Федоренко Н.Т., Сокольская Л.И. Афористика. – Москва: Наука, 1990. – С. 38-39.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: "O'zME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 118.
12. Le Petit Larousse illustré. Dictionnaire de la langue française. 100-e édition. – Paris: Larousse, 2005. – 1858 p.; Le Petit Robert. Dictionnaire de la langue française. Édition Le Robert, 2019. – 2880 p.